

**DASTURIY TA'LIM VOSITALARI ASOSIDA TALABALARINI KASBIY
FAOLIYATGA OID TEXNIK-KONSTRUKTRLIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING
TAKOMILLASHTIRILGAN MODELI**

Buxoro davlat pedagogika instituti “Aniq va tabiiy” fanlar dekani

Jo'rayev Akmal Razzoqovich

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Shodiyeva Sitora Ulugbek qizi


Annotatsiya: Respublikamizda bugungi kunga kelib ta'lism jarayoni uchun mo'ljallangan ko'plab dasturiy ta'lism vositalari ishlab chiqilib, ularga elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, elektron kutubxonalar, elektron kataloglar, elektron o'quv metodik majmua kabi turli dasturiy ta'lism vositalarini misol qilib keltirish mumkin. O'quv jarayonida dasturiy vositalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Ta'lism jarayonini tashkil qilish va boshqarishga doir bo'lganlari dasturiy vositalar va bundan faqat o'quv jarayoniga doir bo'lganlari dasturiy ta'lism vositalari deb qo'llaniladi

Kalit so'zlar: Texnik-dizayn, kompetensiya, salohiyat, kasbiy kompetensiya, kasbiy faoliyat, qobiliyat, faoliyat, ko'nikma, dizayn, modellashtirish.

“Texnologik ta'lism” yo'nalishidagi mutaxassis kadrlar bilim darajasi, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshliligi sifatli ta'lism jarayonining mahsuli hisoblanadi. 60112300 – Texnologik ta'lism yo'nalishi talabalarini mutaxassislik fanlar bo'yicha dasturiy ta'lism vositalari asosida texnik-konstrukturlik kompetentligini rivojlantirish modeli mazmunan takomillashtirildi. Ushbu model, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini texnik-konstrukturlik kompetentligini rivojlantirishda kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan yangicha yondashuvni ifodalaydi. Modelning asosiy tarkibiy qismlari

quyidagi komponentlardan tashkil topgan: “Maqsad”, “Tashkiliy”, “Mazmun”, “Natija” (2.1-rasmga qarang).

Dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarni texnik-kostrukturlik komponentligini rivojlantirish modeli komponentlari quyidagicha tavsiflanadi:



1-rasm. Dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarni texnik-kostrukturlik komponentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli



Malaka talablari: Oliy ta'lim muassasalarining 60112300 – Texnologik ta'lim yo'nali shida tahsil olayotgan talabalarning malakalariga qo'yiladigan minimal talablar asosida kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi izohlangan.

Model maqsadi: talabalarni, ya'ni texnik-konstrukturlik kompetentligi rivojlangan bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchisi bilimi darajasini dasturiy ta'lim vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish asosida o'qitishdan iboratdir.

Modelda dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarni texnik-kostrukturlik komponentligini rivojlantirishdan maqsad, bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarini ilg'or pedagogik yondashuvlar va tamoyillarga asoslanib kreativ fikrlovchi pedagog sifatida shakllantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning didaktik, tashkiliy-metodik xususiyatlari o'rganildi.

"Texnologik ta'lim" yo'nali shida o'qitiladigan mutaxassislik fanlardan dars mashg'ulotlarining dasturiy o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlarda ob'yektlar konstruksiyasini tuzish orqali talabalarning mustaqil-ijodiy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayon o'quv materiallarini zamonaviylik, interaktivlik, vizuallik, tizimlilik, individuallik, ijtimoiy sog'lom muhitni yaratish, mustaqillik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi kabi tamoyillarga asoslanadi.

Talabalarning innovatsion sifatlarini rivojlantiruvchi metod, shakl, vosita va texnologiyalarning maqsadli va izchil qo'llanilishi, shuningdek, dasturiy ta'lim vositalari asosida ularning texnik-konstrukturlik kompetentligini rivojlantirish, elektron axborot ta'lim muhitida ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish qobiliyatlarini shakllantirish muhim o'rinn tutadi.

Kredit-modul tizimi – ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.



O'quv-metodik va didaktik ta'minot – “Texnologik ta'lim” yo‘nalishining o‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha tayyorlangan (darslik, elektron darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy majmua) orqali talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish maqsadga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu materiallardan maqsadli va samarali foydalanish orqali talabalarning mustaqil ishlash, innovatsion fikrlash va amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar ta’milanadi.

Yondashuvlar – “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabalarini texnik-konstrukturlik kompetentligini rivojlantirish hamda kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanishning (Mantiqiy, evristik, integrativ, tanqidiy, kreativ, innovatsion) yondashuvlar asosida amalga oshirildi.

Tamoyillar - umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan ta’lim jarayonining asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi qoidalar va qonunlardir. Ular talabalar tomonidan ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishni ta’minalashga yordam beradi. Ta’lim tizimlari, odatda, ikki asosiy toifaga bo‘linadi: o‘qituvchiga yo‘naltirilgan va talabaga yo‘naltirilgan ta’lim. O‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta’lim tizimida, ta’lim jarayoni va o‘quv dasturlari o‘qituvchi va oliv ta’lim muassasasi tomonidan belgilangan standartlarga asoslanadi. Bu tizimda talabalar uchun nimani, qanday usulda o‘rganish kerakligi aniq belgilangan bo‘lib, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari ko‘p holatda e’tiborga olinmaydi. Ta’lim jarayoni markazlashtirilgan va qat’iy nazorat ostida tashkil etiladi. O‘qituvchi bilimning yagona manbai sifatida qaraladi, va bu tizimda talabalar mustaqil fikrlash, o‘z fikrlarini ifoda etish yoki muammolarni tanqidiy tahlil qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishda cheklowlarga duch kelishadi. Natijada, talabalar o‘zlariga qarorlar qabul qilishda va ijodiy fikrlashda erkinlikka ega bo‘lmaydi.

Ta’lim shakllari – Auditoriyada: jamoaviy, guruhli, yakka tartibda: ta’limning maqsadi, vositasi, natijasi, o‘rni hamda ta’lim subyektlari ishtirokiga ko‘ra farq qiladigan dras soatlarining didaktik tavsifi. Dars, seminar mashg‘uloti,

amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti, o'yin, nazariy yoki amaliy mashg'ulot dars shakli vositasida qayd etilib, tadqiq qilindi va tavsiflandi.

Texnik – konstruktorlik kompetentligi rivojlangan bo'lajak "Texnologiya" fani o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash murakkab jarayon hisoblanib, ushbu jarayonni amalga oshirishda, ta'lim jarayoning modelini takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zhuraev A.R. "Berlin Studies" – Transnational journal of science and humanities. Vol.2 Issue 1.5 Pedagogical sciences. 2022. Pg, 842-848.
2. Zhuraev A.R. "Development of the Future Creativity of Future Technology Teachers on the Basis of an Innovative Approach "Central asian journal of theoretical and applied sciences". Vol. 3 No. 11, 2022 y. Pg, 39-42.
3. A.R. Jo'rayev, Z.D.Rasulova "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini elektron ta'lim resurslardan foydalanib tashkil etish imkoniyatlari "Pedagogik akmeologiya". Xalqaro ilmiy-metodik jurnali. 2022 y. Maxsus son. Buxoro sh. 240-246 b.
4. A.R. Jo'rayev, O.O.Xalloqova "Texnologiya darslarini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish "Pedagogik akmeologiya". Xalqaro ilmiy-metodik jurnali. 2022 y. Maxsus son. Buxoro sh. 271-278 b.